YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 8-aprel, №13 (8031)

SPORT BU FAQAT MUSOBAQA EMAS, BALKI SOG‘LOM TURMUSH TARZI, INTIZOM, VATANPARVARLIK VA MAMLAKAT NUFUZINI NAMOYON QILADIGAN KATTA KUCH.

Shavkat MIRZIYOYEV

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yig‘ilish avvalida davlatimiz rahbari sport nafaqat musobaqa, balki sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon etadigan katta kuch ekanini ta’kidladi.

Qayd etilganidek, so‘nggi to‘qqiz yilda 1,5 mingdan ziyod mahallada 1 ming 774 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Hududlarda 200 dan ortiq yirik sport inshooti, 4 mingga yaqin xususiy sport klubi ish boshladi. Sport bilan professional shug‘ullanuvchi yoshlar soni 2 karra oshdi, olimpiya terma jamoalari sportchilari 2 barobar, paralimpiya bo‘yicha esa 3 barobar ko‘paydi. Birgina o‘tgan yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 452 ta oltin, 418 ta kumush va 501 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Ularning 50 nafardan ziyodi jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.

Yig‘ilishda sohada erishilayotgan yutuqlar bilan birga mavjud muammo va kamchiliklar ham chuqur tahlil qilindi.

Bugun olimpiada sport turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan 26 ta federatsiya rahbarlari va hokimlar joylardagi mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solmagani tanqid qilindi. Xususan, 207 ta oliygoh, 15 ta olimpiya va paralimpiya markazi, 310 ta sport maktabi, 16 ta sport internatining imkoniyatlaridan samarali foydalanilganda, chempion tayyorlash va musobaqalarga litsenziya qo‘lga kiritish borasida natijalar yanada yuqori bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada ijobiy tajribalar ham qayd etildi. Masalan, Zarbdor tumanida o‘tgan yili 23 ta mahalladagi 34 ming yosh ommaviy sportga jalb etilgan. Tumanda 3 ta yangi sport zali qurilib, stol tennisi, taekvondo va voleybolga ixtisoslashtirilgan. Tadbirkorlar bilan hamkorlikda 2 ta usti yopiq futbol maydoni va fitness klub tashkil qilingan. Natijada Zarbdor tumani ilk bor voleybol va stol tennisi bo‘yicha joriy yilgi O‘zbekiston chempionatiga mezbonlik qiladi.

Ayrim maktablarda to‘garaklar faqat nomiga tashkil etilgani, shu bois, ularga 3-4 nafardangina bola qatnashib kelayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Jumladan, o‘tgan yili Jizzax, Qashqadaryo va Farg‘onadagi maktab o‘quvchilarining to‘rtdan biri jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha minimal talabni ham bajara olmagan.

Hokimlar oldiga har bir maktabda sport to‘garaklari uchun zarur sharoit yaratish, qamrovni oshirish va bolalarni sportga keng jalb etish vazifasi qo‘yildi.

Bugun sportchilarni jarohatdan tiklash, mushak holatini tekshirish va funksional tahlil qilish ishlari asosan xorijda amalga oshirilayotgani, federatsiyalar sport shifokori, farmakolog va diyetologlarni chetdan jalb qilishga majbur bo‘layotgani ta’kidlandi.

Endilikda har bir ixtisoslashgan tibbiyot markazi tegishli sport federatsiyalari bilan hamkorlik qiladi. Ular har oy terma jamoa a’zolarining sog‘lig‘ini diagnostika qiladi, jarohat olish xavfini baholaydi, jismoniy yuklamani ilmiy tahlil qilib, murabbiylarga tibbiy tavsiyalar beradi.

Davlatimiz rahbari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qator tashabbuslarni ham ilgari surdi.

Endilikda mahallada ommaviy sport natijadorligi faqat qamrov bilan emas, balki aholining salomatlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham baholanadi. Har bir viloyatda bittadan tumanda “salomatlik balansi” shakllantiriladi. Sport bilan faol shug‘ullanuvchi aholi orasidan “sog‘lom hayot volontyorlari” korpusi tashkil qilinadi. Ular mahallalarda sport va sog‘lom turmush tamoyillarini targ‘ib qiladi.

Har bir tumanda ushbu tizimda eng namunaviy bo‘lgan 10 tadan mahallaga bepul sport formasi va anjomlari berib boriladi. Qaysi mahallada sportga qamrov oshsa, aholining salomatligi yaxshilansa, yurak-qon tomir va diabet kasalliklari kamaysa, yil yakuni bilan volontyor va mahalla raisiga 15 million so‘mgacha mukofot beriladi. Ushbu mahallada ommaviy sportga mas’ul trenerga esa 200 foizgacha oylik ustama to‘lanadi.

Dunyoda maxsus jihoz va katta infratuzilmani talab qilmaydigan intensiv mashg‘ulotlar, jumladan, kross-fit ommalashayotgani qayd etildi. Shu bois, 1-maygacha barcha maktab va texnikumlarda bu bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish topshirildi. Kelgusi yildan kross-fit “Besh tashabbus” tizimiga kiritiladi.

Yig‘ilishda davlat organlari va tashkilotlarida ham sportni ommalashtirish bo‘yicha yangi tartib belgilandi. Endi har bir vazir, tarmoq va bank rahbari, viloyat va tuman hokimi o‘z xodimlarining sport bilan shug‘ullanishi uchun namuna bo‘lishi va sharoitlarni kengaytirishi shart.

Shu maqsadda haftaning bir kuni sport kuni sifatida belgilanadi. Bu kunda vazirlik, idora va tashkilotlarda sport mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Joriy yildan boshlab har yili vazirliklar, tarmoqlar, banklar va hokimliklar o‘rtasida respublika birinchiliklari o‘tkaziladi.

Xususiy sektor mehnat jamoalarida ham ommaviy sportni rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, tadbirkorlar o‘z ishchi-xizmatchilari uchun sport zali va maydoncha qurish hamda jihozlashga qilgan xarajatlarini foyda solig‘i bazasidan chegira oladi. Jalb qilingan murabbiylar uchun daromad solig‘i va ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilanadi.

Yig‘ilishda aholini sportga jalb qilish va seleksiya ishlarida “mahalla – maktab – sport muassasasi – federatsiya” zanjiri asosida mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi ma’lum qilindi.

Endi oliygoh rektori, federatsiya rahbari va hokim o‘rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Unga ko‘ra, hokimlar hududdagi maktab, texnikum va boshqa sport obyektlarida darsdan tashqari vaqtda sport to‘garaklari tashkil etish uchun shart-sharoit yaratadi.

Shuningdek, sport yo‘nalishidagi oliygohlar talabalarini dual ta’lim bilan qamrab olib, ularni murabbiylik qilish uchun to‘garaklarga yuborish muhimligi qayd etildi. Bunday talabalarga avtomatik tarzda murabbiylik sertifikati beriladi. To‘garaklardan tushgan daromadning 50 foizi murabbiy talaba ixtiyorida qoladi. Dual ta’lim bitiruvchilariga diplom bilan birga hakamlik sertifikati ham beriladi.

Yig‘ilishda joriy yilda yangi tizim orqali doimiy sport bilan shug‘ullanuvchilar sonini 2 karra oshirib, 1 million nafarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Mutasaddilarga sun’iy intellekt yordamida sportchi va murabbiylar natijalarini tahlil qilish, mashg‘ulotlar rejasini tuzish imkonini beradigan yagona platforma yaratish topshirildi.

Sport sohasidagi ilmiy ishlar esa bundan buyon faqat dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan bo‘lishi, natijasi to‘g‘ridan to‘g‘ri amaliyotga joriy qilinishi shartligi ko‘rsatib o‘tildi. Agar olimlarning ilmiy ishi natija berib, sportchilarning yutuqlari va xalqaro musobaqalardagi medallari ko‘paysa, bunday olimlar 100 million so‘mdan mukofotlanadi.

Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Joriy yildan Prezident olimpiadasi doirasida musobaqa o‘tkaziladigan sport turlari 2 karra ko‘paytirilib, 21 taga yetkaziladi. Endi mazkur musobaqalar parasport bo‘yicha ham tashkil etiladi. Har bir tuman va viloyat hokimi o‘z hududida Hokim olimpiadasini o‘tkazadi. Ularning g‘oliblari Prezident olimpiadasiga yo‘llanma oladi.

Adaptiv sport turlari bo‘yicha kadr tayyorlash va malaka oshirish tizimi ham tubdan yangilanadi. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent filiali inklyuziv sport bo‘yicha tayanch oliygohga aylanadi.

Prezidentimiz parasportchilarimiz erishayotgan natijalarda ularga tun-u kun hamrohlik qilayotgan fidoyi insonlarning hissasi katta ekanini ta’kidladi. Endi o‘quv-yig‘inlar, respublika va xalqaro musobaqalarda parasportchiga hamrohlik qilgan shaxslarning transport va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Ularga har oy sport maktabi trenerlari oyligiga teng miqdorda maosh to‘lanadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda sport inson salomatligi va yuqori natijalar garovi bo‘lish bilan birga daromad keltiradigan sohaga ham aylanishi zarurligini ta’kidladi.

Shu nuqtayi nazardan, futbol bo‘yicha milliy chempionat o‘yinlarini tashkil etish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Ayrim o‘yinlar ish vaqtida o‘tkazilayotgani sababli muxlislar tashrifi kutilgan darajada emasligi aytildi.

O‘yinlar vaqtini dam olish kunlari yoki ish kunlari kechki soat 19:00 dan keyin belgilash, stadionlar atrofida qo‘shimcha xizmatlar, musiqiy va ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etish, muxlislar uchun qulay transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, arzon futbol turpaketlarini taklif etish orqali stadionlarga muxlislar tashrifini keskin oshirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish topshirildi.

Yig‘ilishda joylardagi sport infratuzilmasi holati ham ko‘rib chiqildi. Qayd etilganidek, hududlarda 39 ta ochiq va yopiq sport inshooti ta’mirtalab ahvolda bo‘lgani sababli to‘liq ishlatilmayapti. Mutasaddilarga bunday obyektlarni zamonaviy sport majmualariga aylantirish uchun qulay shartlarda xususiy sheriklikka berish bo‘yicha qaror loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Sport maktablarida yoshlar qiziqadigan noolimpiya sport turlari bo‘yicha ham seksiyalar tashkil etish, O‘zbekiston noolimpiya sport turlari konfederatsiyasini tuzish taklifi ma’qullandi.

Yig‘ilish davomida davlatimiz rahbari soha rahbarlari va hokimlarning hisobotlarini tingladi, tadbirkor va sportchilar bilan muloqot qildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

ILMGA YO‘L OCHGAN TASHABBUS

BEKOBODDA “HOKIM KUBOGI” OLIMPIADASIGA START BERILDI

Bugungi kunda yurt taraqqiyotini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biri — bu ilmli, tafakkuri keng va raqobatbardosh yoshlarni voyaga yetkazishdir. Har bir hududning ertangi istiqboli, avvalo, uning maktablarida, sinfxonalarida va o‘quvchilarining qalbida shakllanadi. Shu ma’noda, Bekobod tumanida yo‘lga qo‘yilgan “Hokim kubogi” olimpiadasi nafaqat navbatdagi tanlov, balki yoshlar intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida alohida e’tiborga loyiq.

Bekobod tumanida “Hokim kubogi” olimpiadasiga rasman start berilgani tumandagi ta’lim muhitida yangi ruh, yangi raqobat va yangi umidlarni boshlab berdi. Mazkur olimpiada Bekobod tumani hokimligi, “Ed-Ex school” ta’lim klasteri, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi hamkorligida tashkil etildi. Bu esa mazkur loyiha ortida nafaqat tashkiliy mas’uliyat, balki yoshlar ta’limi va kelajagiga bo‘lgan jiddiy e’tibor mujassam ekanini ko‘rsatadi.

Bugun ta’lim tizimidagi eng dolzarb masalalardan biri — yoshlarni shunchaki bilim oluvchi emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi, tashabbus ko‘rsata oladigan va zamonaviy muammolarga yechim topa biladigan shaxslar sifatida tarbiyalashdir. “Hokim kubogi” olimpiadasining ahamiyati ham aynan shunda namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarning darslik doirasidagi bilimini sinash bilangina cheklanmay, ularning mantiqiy tafakkuri, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, intellektual tayyorgarligi va raqobatbardoshligini ham yuzaga chiqaradi.

Mazkur olimpiada o‘z qamrovi va mazmuni bilan ham e’tiborlidir. U matematika, ingliz tili, IT, idiaton va zakovat kabi zamonaviy va dolzarb yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan. Bu tanlov yo‘nalishlarining o‘ziyoq bugungi ta’lim siyosati qanday ustuvorliklar asosida shakllanayotganini ko‘rsatib turibdi. Chunki bugungi dunyoda nafaqat fanlarni bilish, balki chet tillarini egallash, texnologiyalar bilan ishlash, jamoa bilan fikr almashish, mantiqiy mushohada yuritish kabi ko‘nikmalar ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Olimpiadaning ilk bosqichi sifatida matematika fani bo‘yicha bellashuv 2026-yil 4-aprel kuni tashkil etildi. Matematika — bu faqat formulalar va misollar yig‘indisi emas, balki fikrlash madaniyati, mantiqiy tartib va muammoni yechish qobiliyatining asosi hamdir. Shu sababli ham olimpiadaning matematika yo‘nalishi bilan boshlanishi ramziy jihatdan o‘rinli bo‘ldi. Bu orqali o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, aniqligi va intellektual tayyorgarligi sinovdan o‘tkazildi.



Mazkur bosqichda Bekobod tumani doirasidagi jami 63 ta ta’lim muassasasi ishtirok etdi. Jumladan, 60 ta umumta’lim maktabi, Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, “Ed-Ex school” ta’lim klasteri va “Progress and Result” maktabi o‘quvchilari ushbu nufuzli fan olimpiadasida o‘z bilim va salohiyatlarini namoyon etdilar.

Bu kabi keng qamrovli ishtirok, avvalo, ta’lim tizimidagi birlik, hamkorlik va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki haqiqiy rivojlanish faqatgina dars berish bilan emas, balki natijani taqqoslash, tajriba almashish va o‘z ustida ishlashga undaydigan maydonlar orqali yuzaga keladi. “Hokim kubogi” ana shunday maydonlardan biriga aylanmoqda.

Bugungi o‘quvchi — ertangi jamiyat bunyodkori. Unga berilgan har bir imkoniyat, aslida, kelajak uchun qo‘yilgan sarmoyadir. Olimpiadalar esa ana shu sarmoyaning samarali vositalaridan biridir. Chunki bunday bellashuvlar yoshlarni sinovga tayyorlaydi, ularda mas’uliyat hissini kuchaytiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi va katta maqsadlar sari undaydi.

Ayniqsa, olimpiada tarkibiga IT va idiaton kabi yo‘nalishlarning kiritilgani alohida e’tiborga sazovor. Chunki bugungi dunyo raqamli texnologiyalar asri bo‘lib, kelajak kasblari va istiqbollari aynan shu sohalar bilan chambarchas bog‘liq. Endi o‘quvchi faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion fikrlash, texnologik tafakkur va ijodiy yondashuv orqali ham o‘z salohiyatini namoyon etishi kerak.

Shuningdek, Zakovat yo‘nalishining ham kiritilishi yoshlar orasida fikrlash madaniyati, tezkor mushohada, umumiy dunyoqarash va jamoaviy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kun yoshidan faqat bir yo‘nalishda emas, balki keng dunyoqarash va ko‘p qirrali tafakkur talab etiladi.

Bunday olimpiadalar nafaqat o‘quvchilar, balki ustozlar uchun ham muhim tajriba maydonidir. Chunki har bir natija ortida o‘qituvchining mehnati, izlanishi va mas’uliyati turadi. O‘quvchi yutug‘i — bu birgina bola muvaffaqiyati emas, balki maktab jamoasi, ustozlar fidoyiligi va ota-onalarning ishonch mahsulidir.

Bekobod tumanida bunday tashabbuslarning yo‘lga qo‘yilishi, eng avvalo, hududda ta’limga bo‘lgan e’tibor kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Chunki bugungi kunda har qanday taraqqiyotning ildizi maktabdan boshlanadi. Agar maktablarda ilmga qiziqish, intellektual muhit va sog‘lom raqobat bo‘lsa, albatta, ertangi kunning muhandisi, dasturchisi, olimi, pedagogi va liderlari ham aynan shu muhitdan yetishib chiqadi.

Shunday ekan, Bekobod tumanida start olgan “Hokim kubogi” olimpiadasini nafaqat ta’limiy tadbir, balki kelajak avlod tafakkuriga yo‘naltirilgan strategik tashabbus sifatida baholash mumkin. Bu olimpiada yoshlarni bilim sari chorlaydi, ustozlarni yangi natijalar sari ilhomlantiradi, ta’lim muassasalarini esa yanada faol va samarali ishlashga undaydi.

Eng muhimi, bunday loyihalar orqali bir haqiqat takroran o‘z tasdig‘ini topadi: kelajak ilm bilan quriladi. Taraqqiyot bilimli avlod bilan boshlanadi. Yurt ravnaqi esa maktabdan, o‘quvchidan va ta’limga berilgan e’tibordan boshlanadi.

Tursunali QURBONOV,
“Ed-Ex school” xususiy maktabi
matematika fani o‘qituvchisi

TIBBIY KO‘RIK

SOG‘LOM AVLOD — KELAJAK POYDEVORI

Yurtimizda aholi sog‘lig‘ini mustahkamlash, ayniqsa bolalar salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom etmoqda. Ana shunday ezgu tashabbuslardan biri sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi mutaxassislari tomonidan Bekobod tumanida keng qamrovli tibbiy ko‘rik tashkil etildi.

Mazkur ko‘rik markaz rahbari boshchiligida 4 nafar malakali mutaxassis tomonidan o‘tkazilib, uning asosiy maqsadi aholiga, ayniqsa bolalarga ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish, kasalliklarni erta aniqlash hamda og‘ir tashxisli bemorlarni zamonaviy davolash imkoniyatlari bilan qamrab olishdan iborat bo‘ldi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Bekobod tumanida jami 172 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Shundan qariyb 60 ming nafari bolalar bo‘lib, 3 mingdan ziyodini bir yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar tashkil etadi. Bu esa hududda bolalar salomatligiga alohida e’tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tibbiy ko‘rik davomida 70 nafar bola travmatologik va ortopedik yo‘nalishda chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkazildi. Natijada qator kasalliklar dastlabki bosqichda aniqlanib, bemorlarga aniq tashxis qo‘yildi hamda tegishli davolash choralari belgilandi. Bu esa kelgusida og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tuman madaniyat uyida mahalla raislari va faollar ishtirokida ortopedik kasalliklarni erta aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot suhbatlari ham tashkil etildi. Unda mutaxassislar tomonidan sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, bolalarda to‘g‘ri jismoniy rivojlanishni ta’minlash borasida muhim tavsiyalar berildi.



Mazkur salomatlik aksiyasi nafaqat tibbiy xizmat sifatini oshirish, balki aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda ixtisoslashgan yordamni hududlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Eng asosiysi, bu kabi tadbirlar sog‘liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlarning amaliy ifodasidir.

Darhaqiqat, inson salomatligi — jamiyat boyligi. Uni asrash va mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilayotgan har bir ezgu ish kelajak avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Akrom MAMADALIYEV

YOSHLAR NAFASI – MA’NAVIYAT SADOSI!



Bekobod tumanidagi 1-son texnikum binosida “Yoshlar nafasi – ma’naviyat sadosi!” mavzusida “Uch avlod uchrashuvi” doirasida shukronalik targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. Mazkur uchrashuvda o‘rta avlod vakillari, nuroniylar hamda yoshlar faol ishtirok etib, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni mustahkamlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbir davomida so‘zga chiqqan nuroniylar yurtimizdagi tinchlik va farovon hayotning qadriga yetish, har bir ne’mat uchun shukronalik hissini qalbda asrab-avaylash lozimligini alohida ta’kidladilar. Ular o‘z hayotiy tajribalari misolida yoshlarni sabr-toqatli bo‘lishga, shukr qilishga hamda Vatanga sadoqat ruhida yashashga da’vat etdilar.

Uch avlod uchrashuvi

Uchrashuv jarayonida oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-oqibat kabi milliy qadriyatlar keng targ‘ib qilinib, yoshlarning qalbida ularga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi fikrlar bildirildi.

Mazkur tadbir yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy qadriyatlarimizga sodiq ruhda tarbiyalash hamda avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoqutxon MO‘MINOVA,
O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi
Bekobod tumani bo‘limi boshlig‘i

DXX kubogi – 2026

BEKOBODDA YANGI MAVSUMGA START BERILDI

Bekobod tumanida yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “DXX kubogi – 2026” musobaqasining yangi mavsumiga rasman start berildi. Unda tumandagi 51 ta mahalla jamoalari o‘rtasida qura tashlash marosimi o‘tkazildi.

Musobaqaning ochilish bahsida Paxtakor hamda Savrak mahalla yoshlari maydonga tushib, sportga xos shijoat va birdamlik ruhini namoyon etdilar. Ushbu bellashuvlar yoshlar o‘rtasida nafaqat sog‘lom raqobatni kuchaytirish, balki do‘stlik, jamoaviylik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oldinda esa muxlislarni yanada qizg‘in va murosasiz uchrashuvlar kutmoqda.

Dilshoda SAIDOVA

Prezident qarori

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI “YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!” BOSH G‘OYASI OSTIDA NISHONLANADI



Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Mazkur hujjatga ko‘ra, mamlakatimiz istiqlolining 35 yillik tantanasi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan holda, Yangi O‘zbekistonning ulkan salohiyati va jahon maydonidagi yuksak nufuziga muvofiq tarzda nishonlanadi.

Qarorda bir qator muhim tashabbuslar ilgari surilgan. Jumladan, 2026-yil 1-iyunga qadar milliy suverenitet g‘oyalarini aks ettiruvchi “Vatan fidoyilari” ramziy monumentining loyihasi ishlab chiqiladi va u mamlakat bo‘ylab barpo etilayotgan “Umummilliy birdamlik bog‘lari”da o‘rnatiladi. Shuningdek, islohotlar sarhisobini o‘zida jamlagan “Mustaqillik zafarnomasi” kitob-albomi tayyorlanadi, Markaziy bank tomonidan esa “Mustaqillikning 35 yilligi” esdalik oltin tangasi zarb etiladi.

Raqamli makonda ham keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari rejalashtirilgan: ijtimoiy tarmoqlarda #Mustaqillik35 va #Uzb35 xeshteglari ostida fleshmoblar va podkastlar tashkil etiladi, telekanallarda “35 yillik Istiqlol yilnomasi” turkum hujjatli filmlari namoyish etiladi. Avgust oyida Toshkentda “Mustaqil O‘zbekiston – 35 yillik taraqqiyot yo‘li: islohotlar, natijalar va istiqbollar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi, xorijdagi vatandoshlar ishtirokida esa madaniy tadbirlar tashkil etilishi belgilandi.

Bayram arafasida mamlakatimizning turli hududlarida yirik sanoat, madaniyat va sport inshootlarining tantanali ochilishi rejalashtirilgan. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi xalqimizning birdamligini namoyish etishga, istiqlol bergan beqiyos imkoniyatlarni qadrlashga va kelajak avlodlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tahririyat

TARAQQIYOT YO‘LI

OLIY TA’LIM VA ILM-FAN TIZIMI YANGI BOSQICHGA CHIQADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.



Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash, ta’lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan taqdimotda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan yangi chora-tadbirlar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, “U10 – O‘zbekistonning global darajadagi ilg‘or universitetlari” dasturi amalga oshiriladi. Dastur doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta’lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilib, ularda ilmiy klasterlar tashkil etiladi. Mazkur tanlov professor-o‘qituvchi va olimlar salohiyati, ishtirokchi tashkilotlarning milliy va xalqaro reytinglardagi o‘rni, ilmiy infratuzilmasi hamda moliyalashtirishdagi ulushi kabi ko‘rsatkichlar asosida o‘tkaziladi.

Tashkil etiladigan ilmiy klasterlar mahalliy va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar hamda sanoat korxonalari hamkorligidagi konsorsium sifatida faoliyat yuritadi.

Milliy tadqiqot universiteti maqomi berilgan universitetga ilmiy klaster tashkil etish uchun Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 150 milliard so‘mgacha mablag‘ ajratiladi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Xususan, 2027-yildan boshlab oliy ta’lim tashkilotlarini ularning milliy reytingdagi natijalariga ko‘ra moliyaviy rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda universitetlar ta’lim sifati, ilmiy faoliyat, xalqaro hamkorlik, raqamlashtirish va bitiruvchilar bandligi kabi mezonlar asosida baholanadi.

Davlat granti asosida ta’lim olayotgan talabalar uchun oliygohlarga ajratiladigan mablag‘lar miqdorini shakllantirishda ham yangi yondashuvlar taklif etildi. Endilikda ta’lim yo‘nalishining murakkabligi, mehnat bozori ehtiyojlari, universitet reytingi, hududiy omillar va professor-o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish kabi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi.

Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning yangi tizimi joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda. Xususan, davlat ilmiy dasturlari doirasida ajratiladigan mablag‘larning kamida 50 foizi ustuvor yo‘nalishlarga sarflanadi. Loyihalarni saralash xalqaro ekspertiza, ilmiy-texnik kengashlar va tarmoq korxonalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Shuningdek, oliy ta’lim va tashkilotlar faoliyatida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirishga qaratilgan yangi tizim taklif etildi.

Jumladan, oliygohlarning “spin-off” korxonalarini tashkil etish orqali “tarmoq – korxona – oliy ta’lim tashkiloti – ilmiy tashkilot” zanjiri asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilmoqda. Bu orqali ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy etish, texnologik transferni kuchaytirish va universitetlarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsad qilingan.

O‘zbekistonni mintaqaviy ta’lim xabiga aylantirish maqsadida xorijiy talabalarni jalb etish bo‘yicha yangi mexanizmlar taklif qilindi. Jumladan, har yili respublika davlat oliy ta’lim tashkilotlarida 500 nafargacha iqtidorli chet el fuqarolariga oliy ta’lim olish uchun grant ajratishni nazarda tutuvchi “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” dasturini amalga oshirish belgilanmoqda.

Taqdimotda sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, raqamli ta’lim va sun’iy intellektni rivojlantirish, yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa muhim tashabbuslar ham muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni har tomonlama puxta ishlab chiqish, ularni bosqichma-bosqich joriy etish orqali oliy ta’lim va ilm-fan tizimini yangi darajaga olib chiqish muhimligini ta’kidladi. Mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

DEPUTAT MINBARI

BIR KO‘CHAT – MING BARAKA



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi bugungi kunda yurtimizda ekologik barqarorlikni ta’minlashning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. So‘nggi yillarda har yili 200 million tupdan ortiq ko‘chat ekilgani, 2 ming gektardan ziyod hududda yuzlab yashil bog‘ va parklar barpo etilgani bu boradagi ishlarning naqadar keng ko‘lamli ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Ayniqsa, Orolbo‘yi hududida 2 million gektar maydonda himoya o‘rmonzorlari yaratilgani, respublika bo‘ylab yashillik darajasining 8 foizdan 14,2 foizga oshgani kelajak avlod uchun sog‘lom muhit yaratish yo‘lidagi ulkan qadamdir. 2030-yilga borib ushbu ko‘rsatkichni 30 foizga yetkazish bo‘yicha belgilangan maqsadlar esa yanada mas’uliyatli vazifalarni oldimizga qo‘ymoqda.

Milliy dendrologiya bog‘ining tashkil etilishi, “yashil” texnikumlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, hududlarda yangi o‘rmonzorlar va “yashil belbog‘”lar barpo etilishi ilm-fan, ta’lim va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashabbuslar nafaqat ekologiyani yaxshilash, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Biz, deputatlar, joylarda “Mening bog‘im” kabi dasturlar doirasida ajratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, aholi ishtirokini kengaytirish, har bir hududda yashil makonlarni ko‘paytirish borasida faol bo‘lishimiz zarur. Zero, “Bir ko‘chat – ming baraka” degan hikmat bugun har qachongidan ham dolzarbdir.

Qobil BOBOJONOV,
Xalq deputatlari
Bekobod tumani Kengashi deputati

O‘qituvchilarga e’tibor

IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLOVNING YANGI BOSQICHI

O‘qituvchi naqadar ulug‘ zot. Uning qadr-qimmatini so‘z bilan to‘liq ifodalash oson emas. So‘nggi o‘ttiz yil davomida o‘qituvchilarga bo‘lgan hurmat-e’tibor qay darajada o‘z aksini topdi? Bir paytlar kuz boshidan qish kirguniga qadar daladan qaytmay, paxta terimi va turli obodonchilik ishlariga majburan jalb etilgan fidoyi kasb egalarining bugungi taqdiri qanday?

Yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyot bosqichlarini amalga oshirar ekan, ushbu toifa vakillariga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Ularga berilayotgan imtiyozlar qator qonunchilik hujjatlarida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-69-sonli qarori pedagoglarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri sifatida tahsinga loyiq.

Mazkur qarorga muvofiq, endilikda oliy malaka toifasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar uchun uy-joy sotib olishda davlat tomonidan subsidiya ajratishning yangi tartibi joriy etildi. Jumladan, kamida 15 yillik ish stajiga ega oliy toifali pedagoglar (bosh o‘qituvchilar) uchun ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi Davlat byudjeti hisobidan subsidiya sifatida qoplab beriladi. Ushbu mexanizm Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qayta moliyalashtiriladigan ipoteka kreditlari doirasida amalga oshiriladi.



Ma’lumki, pedagoglar orasida uy-joy bilan bog‘liq muammolar dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Shu bois hukumat tomonidan qabul qilingan yuqoridagi qaror o‘qituvchilarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan muhim amaliy choradir.

Subsidiyadan foydalanish tartibi ham aniq belgilangan. Pedagoglar arizalarni Davlat xizmatlari markazlari orqali oflayn yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — my.gov.uz orqali onlayn shaklda topshirishlari mumkin. Arizalarni ko‘rib chiqishda inson omilini kamaytirish hamda korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida maxsus elektron platforma — “subsidiya.idm.uz” joriy etilgan. Ushbu tizim orqali arizalar shaffof va adolatli tartibda saralanadi.

Umuman olganda, pedagoglarga yaratilayotgan imkoniyatlarni kengaytirish taraqqiyotga intilayotgan har bir davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki jamiyat kelajagi yoshlar qo‘lida bo‘lsa, ularni tarbiyalash va bilim berish o‘qituvchilarning zimmasidadir. Shu bois, o‘qituvchilarning mehnatiga munosib sharoit yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Bekjon TOJIYEV,
Toshkent davlat yuridik universtiteti
Ommaviy huquq fakulteti
2-bosqich talabasi

Xavfsizlik

MUHOFAZA OYLIGI



Yurtimizda har yili aholini turli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqarolarning xavfsizlik madaniyatini oshirish hamda favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qator targ‘ibot tadbirlari amalga oshiriladi. Ana shunday muhim tashabbuslardan biri sifatida joriy yilning 1-aprelidan 1-mayigacha respublikamizda “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi” o‘tkazilmoqda.

Mazkur oylik doirasida aholi, ayniqsa yoshlar, o‘quvchilar va mehnat jamoalari o‘rtasida keng ko‘lamli tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Unda tabiiy ofatlar — zilzila, sel, suv toshqini, kuchli shamol va boshqa xavf-xatarlardan himoyalanish yo‘llari haqida batafsil ma’lumotlar berilmoqda. Shuningdek, yong‘in xavfsizligi, gaz va elektr jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qilish qoidalari keng targ‘ib etilmoqda.

Oylik davomida turli amaliy mashg‘ulotlar, seminar-treninglar, ko‘rgazmali chiqishlar va maxsus o‘quv mashqlari tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar orqali fuqarolarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko‘nikmalari ham mustahkamlanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalari hamda korxona va tashkilotlarda evakuatsiya mashqlarining o‘tkazilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda har bir fuqaroning mas’uliyati beqiyos. Har bir inson o‘z hayoti va atrofdagilar xavfsizligi uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Zero, ogohlik va ehtiyotkorlik ko‘plab noxush holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Abdulaziz ABDUGAPPAROV,
Bekobod tuman FVB kichik inspektori, oddiy askar,
Bahriddin ACHILOV,
“UKZ” OFVB inspektori, 1-serjant

Sog‘lom ovqatlanish

KASALLIKLARNING ENG YAXSHI PROFILAKTIKASI



Bugungi kunda inson salomatligini saqlash va mustahkamlashda sog‘lom turmush tarzi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, to‘g‘ri va muvozanatli ovqatlanish ko‘plab kasalliklarning oldini olishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shifokorlarning ta’kidlashicha, noto‘g‘ri ovqatlanish yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik, qandli diabet va boshqa surunkali xastaliklarning asosiy sabablaridan biridir.

Muvozanatli ovqatlanish organizm uchun zarur bo‘lgan barcha oziq moddalar, ya’ni oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar va minerallarni yetarli miqdorda qabul qilishni anglatadi. Kundalik ratsionda yangi sabzavot va mevalar, don mahsulotlari, go‘sht va baliq, sut mahsulotlari bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

To‘g‘ri ovqatlanishning asosiy qoidalari ovqatni o‘z vaqtida va me’yorida iste’mol qilish, qovurilgan va yog‘li taomlarni kamaytirish, tuz va shakar iste’molini cheklash, ko‘proq tabiiy va yangi mahsulotlarni tanlash hamda kun davomida yetarli miqdorda suv ichishdan iboratdir.

Tez tayyorlanadigan taomlar, ya’ni fastfud mahsulotlari tarkibida ko‘p miqdorda yog‘ va tuz mavjud bo‘lib, ularni tez-tez iste’mol qilish organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, gazlangan ichimliklar va ortiqcha shirinliklar ham sog‘liq uchun zararli hisoblanadi.

Kasallikni davolashdan ko‘ra uning oldini olish osonroq va arzonroqdir. To‘g‘ri ovqatlanish orqali immunitetni mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish hamda uzoq va sifatli hayot kechirish mumkin.

Xayrullo TURSUNMATOV,
Bekobod tumani Sanitariya va gigiyena bo‘limi mudiri

Tibbiy maslahat

YUQUMLI TERI KASALLIKLARIDAN SAQLANING!

Trikofitiya yuqumli zamburug‘ kasalligi bo‘lib, uni *Trichophyton* turkumiga mansub zamburug‘lar qo‘zg‘atadi. Ushbu kasallik asosan teri, tirnoq hamda sochlarni zararlaydi. Xalq orasida u “temratki” nomi bilan ham yuritiladi.

Barcha zamburug‘ kasalliklari singari trikofitiya ham mavsumiy xususiyatga ega. Namgarchilik va yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladigan davrlarda zamburug‘larning ko‘payishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Shu sababli yilning nam fasllarida kasallanish holatlari ortishi kuzatiladi.

Kasallik manbai bemor inson yoki zararlangan uy hayvonlari hisoblanadi. Trikofitiyaning quyidagi turlari mavjud:

Yuza trikofitiyasi — bosh terisi va silliq terida paydo bo‘lib, yumaloq shakldagi toshmalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. U sog‘lom teridan keskin ajralib turadi. Kasallik ko‘proq 5–14 yoshdagi bolalarda uchraydi, ba’zan chaqaloqlar va kattalarda ham kuzatiladi. Infeksiya ko‘pincha kasallikka chalingan shaxslarning taroq, bosh kiyim va boshqa shaxsiy buyumlaridan foydalanish orqali yuqadi. Zamburug‘ soch ildizlariga tushgach, 2–3 haftalik yashirin davrdan so‘ng tangacha kattalikdagi oqimtir, yumaloq yoki oval shakldagi dog‘lar paydo bo‘ladi. Dog‘lar yuzasi kepaksimon qipiqlar bilan qoplanadi va zararlangan sochlar 2–3 mm balandlikda sinib qoladi. Ayrim hollarda tirnoqlar ham zararlanib, xiralashadi, mo‘rtlashadi va notekis shaklga keladi.

Surunkali trikofitiya asosan kattalarda uchraydi. Bosh terisida chegarasi aniq bo‘lmagan, kepaksimon qipiqlanuvchi oqimtir dog‘lar hamda singan sochlar o‘rnida qora dog‘lar kuzatiladi. Davolanmagan hollarda kasallik uzoq vaqt davomida infeksiya manbai bo‘lib qoladi.

Yiringli infiltrativ trikofitiya hayvonlardan yuqadigan zamburug‘lar orqali kelib chiqadi. Kasallik buzoq, ot, sigir, qo‘y va itlardan yuqishi mumkin. Hayvonlarda yengil kechsa-da, insonlarda og‘ir shaklda rivojlanadi. Yuqtirilgandan so‘ng 2–3 hafta o‘tib bosh terisida yiringli tugunchalar paydo bo‘ladi. Ularni bosganda yiring ajraladi. Zararlangan sohalar “ari uyasi”ga o‘xshash ko‘rinishga ega bo‘ladi va sochlar oson to‘kilib ketadi. Sog‘aygandan so‘ng esa o‘sha joylarda soch siyrak o‘sishi yoki umuman chiqmasligi mumkin.

Mutaxassislar bunday belgilar kuzatilganda darhol dermatovenerolog shifokorga murojaat qilish lozimligini ta’kidlaydilar. Trikofitiyaning barcha shakllari ixtisoslashgan tibbiy muassasalarda, ko‘pincha statsionar sharoitda davolanishni talab etadi. Afsuski, ayrim hollarda bemorlar o‘zbilarmonlik bilan uy sharoitida davolanishga urinishi oqibatida kasallik og‘ir bosqichga o‘tib ketmoqda. Shu bois, teri sohasida har qanday o‘zgarish sezilganda vaqtni boy bermasdan shifokorga murojaat qilish zarur. Ogohlik va erta tashxis sog‘liqni saqlashning eng muhim omillaridan biridir.

Xumora RAHIMOVA,
Bekobod shahar Sanepid bo‘limi epidemiolog shifokor yordamchisi

Xushxabar



IQTIDOR VA MEHNAT SAMARASI

2–5-aprel kunlari Namangan shahrida Kamoliddin Rahimov nomidagi 11-son bolalar musiqa va san’at maktabida o‘tkazilgan “THE GOLDEN TALENTS of the World – 2026” xalqaro ijodiy festival-tanlovi yurtimizning turli hududlaridan kelgan iqtidorli yoshlarni jamladi. Mazkur nufuzli tanlovda Bekobod tumani vakillari ham munosib ishtirok etib, yuksak natijalarga erishdilar.

Xususan, 16-son bolalar musiqa va san’at maktabining fortepiano bo‘limi o‘quvchisi Primqulova Azizaxon o‘zining yuksak mahorati, sahnadagi ishonchli chiqishi hamda musiqaga bo‘lgan chuqur muhabbati bilan hakamlar hay’atini hayratda qoldirdi. Uning ijrosi yuqori baholanib, faxrli 1-o‘rinni egalladi. Shu bilan birga, qahramonimiz chet elda bo‘lib o‘tadigan xalqaro festivalda ishtirok etish uchun maxsus yo‘llanmani ham qo‘lga kiritdi.

Bu yutuq, albatta, yosh iste’dodning tinimsiz mehnati bilan bir qatorda, ushbu muvaffaqiyatga katta hissa qo‘shib, yosh avlodni san’atga oshno etishda samarali faoliyat olib borayotgan ustozi Nilufar Ibragimovaning fidokorona sa’y-harakatlari samarasi hamdir.

Primqulova Azizaxonning ushbu yutug‘i nafaqat maktabimiz, balki butun Bekobod tumani uchun faxr va g‘urur bag‘ishlaydi. Yosh iste’dod egasiga kelgusidagi ijodiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz. Ustoziga esa shogirdlari bilan birgalikda yanada ko‘plab yutuqlarga erishish nasib etsin!

Shahnoza KAMOLOVA,
Bekobod tumani 16-son
bolalar musiqa va san’at maktabi direktori

Kasbiy rivojlanish

PEDAGOGLAR O‘RTASIDA “ZAKOVAT” INTELLEKTUAL O‘YINI

Bekobod tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Kamoliddin Prnazarov tashabbusi bilan buyuk sarkarda Amir Temurning 690-yilligiga bag‘ishlab umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog xodimlari o‘rtasida “Zakovat” intellektual o‘yini tashkil etildi.

Mazkur tadbir Bekobod tumanida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning bilim va salohiyatini yuksaltirish hamda ularning kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida o‘tkazildi. Intellektual bahslar jarayonida ishtirokchilar o‘zlarining bilimdonligi, tezkor fikrlashi va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini namoyon etdilar.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bellashuv yakunlariga ko‘ra, 53-maktab jamoasi faxrli 1-o‘rinni egalladi. 7-maktab jamoasi 2-o‘rinni, 2-maktab jamoasi esa 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Tadbir davomida bunday intellektual o‘yinlarni muntazam ravishda tashkil etish pedagoglarning kasbiy rivojiga xizmat qilishi, natijada esa ta’lim sifatini yanada oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi



alohida ta’kidlandi. G‘olib jamoalar munosib rag‘batlantirilib, ular uchun Samarqand shahriga bepul sayohat tashkil etilishi belgilandi.

Gulchehra SHERBEKOVA,
Bekobod tumani 53-umumta’lim maktabi
ma’naviy va ma’rifiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Al-Xorazmiy izdoshlari

BILIM VA ZUKKOLIK BELLASHUVI



Bekobod tumani 20-umumta’lim maktabining 4-“A” va 4-“B” sinflari o‘rtasida “Al-Xorazmiy izdoshlari” nomli matematika fanidan musobaqa bo‘lib o‘tdi. Ushbu musobaqa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tezkorligi va bilim saviyasini sinovdan o‘tkazish maqsadida tashkil etildi.

Bellashuvda “Mitti matematiklar” hamda “Zukko matematiklar” jamoalari o‘zaro kuch sinashdilar. Ishtirokchilar turli qiziqarli masalalar, mantiqiy savollar va tezkor hisoblash topshiriqlarini bajarib, o‘z bilim va mahoratlarini namoyish etdilar.

Bahslar juda qizg‘in va murosasiz ruhda kechdi. Har bir jamoa g‘alaba uchun astoydil harakat qildi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, “Zukko matematiklar” jamoasi g‘olib deb topildi.

Tadbir o‘quvchilarda matematika faniga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi va ularga buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy merosiga munosib izdoshlik ruhini singdirdi. Shuningdek, bunday tadbirlar yosh avlodning bilimini mustahkamlash, jamoaviy hamkorlik va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sevara NAZAROVA,
Bekobod tumani 20-umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

E’tirof

FIDOYI USTOZ – TA’LIM TARAQQIYOTI GAROVI

Bugungi kun ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini yuksaltirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday sharafli yo‘lda samarali mehnat qilayotgan ustozlardan biri — 45-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Ra’no Xatamovadir.

Ustoz Ra’no Xatamova o‘zining tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan nafaqat o‘quvchilar, balki hamkasblari orasida ham alohida hurmat qozongan. Ayniqsa, kuzgi va bahorgi milliy sertifikat imtihonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish borasida olib borgan tizimli ishlari tahsinga loyiq. Uning rahbarligida tayyorlangan o‘qituvchi va o‘quvchilarning barchasi muvaffaqiyatli natijalarga erishib, sertifikat sohibiga aylangani bu mehnatning yaqqol natijasidir.

Bundan tashqari, Ra’no Xatamova maktabda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yo‘lida ham faol ish olib bormoqda. U muntazam ravishda “Yosh kitobxon” va “Kitobxon oila” kabi ko‘rik-tanlovlarni tashkil etib, o‘quvchilar va ota-onalarni kitob o‘qishga undab kelmoqda. Ushbu tanlovlar orqali yoshlar qalbida kitobga mehr uyg‘onib, ularning dunyoqarashi kengaymoqda.

Intellektual salohiyatni oshirish maqsadida tashkil etilayotgan “Zakovat” o‘yinlari esa o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu kabi tadbirlar maktab hayotini yanada mazmunli va qiziqarli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ra’no Xatamova o‘z kasbiga sadoqatli, zamonaviy yondashuvlarni amalda qo‘llay oladigan, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash yo‘lida tinimsiz izlanayotgan fidoyi ustozlardandir. Uning faoliyati nafaqat 45-maktab, balki butun ta’lim tizimi uchun ibrat bo‘la oladi.

Muqaddam PARDABOYEVA,
Bekobod tumani 45-umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi



Yuz o‘tmishdan bir sado

TARIXIMIZ – FAXRIMIZ!



2026-yil Bekobod tumani tarixida zarhal harflar bilan bitiladigan yil bo‘lishi shubhasiz. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari buning yaqqol isboti bo‘lib, tuman aholisi bu o‘zgarishlarning bevosita guvohi va ishtirokchisiga aylanmoqda. Joriy yilga “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” deb nom berilgani ham yurtimiz ahlini yangi marralar sari ilhomlantirrmoqda. Darhaqiqat, tumanda deyarli har kuni yangi korxonalar ishga tushirilmoqda, zamonaviy binolar qad rostlamoqda, istiqbolli loyihalar tatbiq etilmoqda. Qurilayotgan yo‘llar, ko‘priklar va inshootlar Bekobod tarixida o‘chmas iz qoldirmoqda.

2026-yil yana bir muhim jihati bilan ham ahamiyatlidir — joriy yilda Bekobod tumani tashkil etilganiga 100 yil to‘ladi. Shu munosabat bilan tuman hokimligida O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi hamda tumanimizning 100 yilligini keng nishonlashga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishni tuman hokimi Z.Nizomiddinov olib bordi.Hokim o‘z kirish so‘zida ushbu qo‘shaloq sanani puxta tayyorgarlik bilan qarshi olish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mustaqillikning 35 yilligini munosib nishonlash yuzasidan belgilangan vazifalarni to‘liq amalga oshirish zarurligini ta’kidladi.

— “Tumanimiz tarixi mamlakatimiz tarixi bilan chambarchas bog‘liq”, — dedi tuman hokimi Z.Nizomiddinov. — Shu bois yozuvchilar, ziyolilar va tarixchilar qisqa muddatda tumanimiz tarixiga oid hujjatlarga asoslangan kitob yaratishlari lozim. Shuningdek, foto va kinoxronika arxivlari asosida ko‘rgazmalar tashkil etish, tumanimizning boy tarixini keng yoritish muhim vazifalardan biridir.

Ta’kidlanishicha, 23 kishidan iborat ishchi guruh a’zolari o‘z vazifalarini aniq taqsimlagan holda faoliyat olib boradi. Arxiv materiallari, tarixiy kitoblar, fotomateriallar hamda tumandan yetishib chiqqan buyuk insonlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va nashrga tayyorlash ustuvor yo‘nalish etib belgilandi. Yig‘ilishda so‘zga chiqqan X.Bobomurodov, K.Mavlonov, Q.Yoqubov, G‘.Abdug‘afurova, A.Boymurodov, N.Jalilov, M.Sherbekov, S.Sheraliyeva va boshqalar kun tartibidagi masala yuzasidan o‘z taklif va mulohazalarini bildirdilar.

Tumanda yangi tarixiy muzeyi qurilib, foydalanishga topshirilishi haqidagi xabar ishtirokchilar tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. Muzey uchun tarixiy ahamiyatga ega eksponatlar to‘plash, aholi xonadonlarida saqlanayotgan noyob buyumlar, hujjatlar va fotomateriallarni yig‘ish, fotorassomlar ko‘rgazmalarini tashkil etish, shuningdek, tuman gazetasi va ijtimoiy tarmoqlarda tarixiy ruknlar ochish bo‘yicha tegishli topshiriqlar berildi. “Yangi Bekobod” gazetasining ushbu sonidan boshlab, “Yuz o‘tmishdan bir sado” rukni ostida tumanimiz tarixiga oid maqolalar, ocherklar va hujjatli materiallar muntazam yoritib boriladi. Bunday ezgu tashabbusda tumanimizning barcha gazetxonlari, ziyolilari va tariximizga qiziqqan yurtdoshlarimizni faol ishtirok etishga chorlaymiz.

Nurali JALIL,
Bekobod tumani tarixini yozish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi

KARVON YO‘LLARI KESISHGAN CHORRAHA



Bekobod shahri va tumani tabiiy-iqlimiy jihatdan qulay hududda joylashgan bo‘lib, shimoldan va shimoli-sharqdan Mo‘g‘ultov, janubi-g‘arbdan Turkiston tizma tog‘larining davomi va yalangliklar, shimoldan Toshkent viloyatining Bo‘ka tumani, janubi-sharqdan Tojikiston, g‘arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradoshdir. Asosiy yerlari Sirdaryoning o‘ng sohilidagi Dalvarzin cho‘li, Ko‘korol va Mirzacho‘l maydonlaridan iborat. Tuproqlari asosan bo‘z va soz, ba’zan sho‘rxok va shag‘altoshli bo‘lib, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulaydir.

Shaharning yuqori qismida barpo etilgan to‘g‘on orqali Dalvarzin kanali va Xos-uyas arig‘i, so‘l qanotdan boshlanuvchi “Bekobod” kanali va Oqbuloq arig‘i hududdagi qishloq va dashtlarni sug‘oradi.

Bekobod strategik jihatdan Farg‘ona vodiysini mamlakatimiz va Markaziy Osiyodagi boshqa hududlar bilan bog‘lovchi yirik transport chorrahasida joylashgan. Uzoq o‘tmishda ham hudud Buyuk Ipak yo‘lining uzviy qismi bo‘lgan, karvonlar tinmay o‘tgan. Yo‘llar bo‘yida baland tepaliklar va tunlari yoqilgan mash’alalar yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq vazifasini bajargan.

Bekobod hududi tarixan ko‘plab mashhur sarkardalar va istilochilarning qadami tekkani bilan ajralib turadi. Shohlar Doro va Kir, makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn, eramiz I asridagi xitoy lashkarboshisi Bak Chao hamda XIII asrda mo‘g‘ul xoqoni Chingizxon qo‘shinlari aynan hozirgi Bekobod va unga tutash qishloqlar orqali o‘tgan. Bu yer Sirdaryoning eng sayoz joylaridan biri bo‘lib, ko‘plab daryo va soylarning suvini jamlaydi.

Bekobod tabiati ham o‘ziga xos: ob-havosi mo‘tadil, ammo yiliga o‘rtacha 52 kun davomida kuchli shamol esadi. “Farg‘ona darvozasi” orqali kirib keladigan bu shamol qishda soniyasiga 25–45 metr, yozda 15–20 metr tezlikda esadi, dov-daraxtlarni sindirib, ekinlarni yo‘q qilishi, tomlarni uchirib ketishi bilan mashhur. Shunga qaramay, aholi Dalvarzin cho‘li va tog‘ yonbag‘irlarida ziroatchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

Arxeologik izlanishlar kam bo‘lgani sababli hududda qadimgi odamlar yashaganini isbotlovchi yodgorliklar hozircha aniqlanmagan. Ammo yozma manbalarda quldorlik davrida ham odamlar bu yerda istiqomat qilgani qayd etilgan. II asrda grek yozuvchisi Arrian Sirdaryoni forslar Yaksart deb atashganini yozgan. Eronliklar eramizdan avvalgi 500-yillarda massagetlar va saklar bilan to‘qnash kelgan. Shunday ekan bu hudud tarix va tabiatning uyg‘unligi bilan ajralib turadi.

Bekobod hududi tarixiy va tabiat jihatdan boy bo‘lib, uning ayrim joylari, xususan Dalvarzin, uzoq o‘tgan davrlardan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarga mavzuni qiziqarli tushuntirish maqsadida men ularga shunday savolni beraman: “Biz yashayotgan cho‘l o‘rni nima uchun Dalvarzin deb atalgan?”

Olimlar bu so‘zning kelib chiqishi bo‘yicha turlicha fikr bildiradilar. Professor K.Yudakin “Dalvarzin”ni mo‘g‘ulcha “Dalbarjin”dan o‘zlashgan, ya’ni “To‘rtburchak” degan ma’noda deb tushuntiradi. XIII asrda mo‘g‘ullar hududni bosib olganlarida bu nomni qo‘yganlar. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunos olimi Hamid G‘afurov “Dalvarzin”ni forscha-tojikcha qo‘shma so‘z sifatida izohlaydi: “tal” — tepa yoki do‘nglik, “varzin” — baland, katta degan ma’noni anglatadi. Demak, Dalvarzin qadimda “Baland tepa”, “Katta qal’a” yoki “Notekis yer” ma’nosini bildirgan.

Hududdagi tepaliklar ham tarixiy jarayonlarni aks ettiradi. Uzoq o‘tgan davrlarda bu tepaliklar ko‘p bo‘lgan, ammo Sirdaryo toshqinlari va noqulay ob-havo, shuningdek, chorizm va sho‘rolar davrida tekislanib, ko‘pchiligi yo‘qolgan. Hozir esa faqat 12 ta tepalik saqlanib qolgan. Ulardan eng mashhuri — Zafar shaharchasidagi Dalvarzintepa.

Bekobod va unga tutash qishloqlarda ko‘plab qadimiy tepaliklar mavjud: Dovultepa, Jumabozor qishlog‘idagi Cho‘yantepa, Mallaboy qishlog‘idagi Allabergantepa, Dehqonobod xo‘jaligidagi O‘sarboytepa, Mondaloq qishlog‘idagi Suyurtepa, Parchayuz qishlog‘idagi Navro‘ztepa, Uyas qishlog‘idagi O‘rto‘qlitepa, Haybatko‘l yaqinidagi To‘ngiztepa, Chanoq qishlog‘i chekkasidagi Qizsuygan va Chanoqtepa, Uchtepa, Zomin qishlog‘idagi Balandtepa. Ba’zilari keyinchalik qabristonga aylantirilgan. Shahar va qo‘shni qishloqlarga borganda, yo‘l chetlarida va ekin maydonlarida ularning ko‘plab qoldiqlarini ko‘rish mumkin.

Tepaliklar tarixi bilan bog‘liq bir nechta arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. 1934-yilda olim M.Massan Oybek nomidagi xo‘jalik hududida joylashgan Chanoqtepa ustida tadqiqot olib borib, uning aslida istehkom sifatida qurilganini aniqladi. Tepaning eni va bo‘yi 70 metr, balandligi 15–17 metr bo‘lib, uning qatlamlaridan III–IV va XI asrlarga oid idishlar va g‘isht qoldiqlari topilgan.

1963-yilda Y.Buryakov boshchiligidagi Chotqol-Qurama arxeologik guruhi Dalvarzintepa, Uchtepa, Balandtepa va Mallaboy qishlog‘i yonidagi tepalarda tadqiqot olib borib, V–XV asrlarga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari topdi. Hozirda bu yodgorliklar muzeylarda saqlanib, o‘quvchilarga tarixiy tafakkurini rivojlantirish uchun ko‘rsatiladi. Shu tariqa, o‘quvchilar qadimiy davr hayoti va bu hududning ahamiyati bilan tanishadi, har bir tepalik ularning tarixiy xotirasiga eshik ochadi.



Tumanimizdagi 32-maktabning geografiya o‘qituvchisi T.Sunnatovning tadqiqotlariga ko‘ra, Dalvarzintepa bir vaqtlar Zafar shaharchasidan boshlanib, Mallaboy qishlog‘igacha cho‘zilgan. U Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, Mashriqdan Mag‘ribga o‘tuvchi karvonlar, shuningdek, Badaxshon, Kashmir va Hindistondan kelgan savdogarlar bu yerda bir muddat qo‘nim topgan, mol almashishgan.

Keyinchalik tepalik buzilib, chorizm istilosi davrida o‘rtasi 7–8 metrlik zindonga, atrofi esa askarlar mashq maydoniga aylantirilgan. Tepaning o‘ng tarafidagi bozor 1928-yili hozirgi “Dalvarzin” xo‘jaligi markaziga, keyin Jumabozor qishlog‘iga ko‘chirilgan. Ma’lum muddatdan so‘ng tepalikni yo‘q qilish maqsadida katta g‘isht o‘choqlari qurilgan, ammo mahalliy norozilik va mutaxassis yetishmasligi sababli 1946-yili bu reja amalga oshirilmagan. Shu jarayonda yer qatlamidan sopol idishlar, tegirmon toshlari, tanga pullar va g‘isht qoldiqlari topilgan.

1990-yili tepaning ustki qismidan g‘isht devorlar va boshqa qoldiqlar aniqlangan. Y.Buryakovning 1963-yildagi qazish ishlari natijasida topilgan yodgorliklar V–XV asrlarga oidligi aniqlandi. Shunday qilib, Dalvarzintepa o‘rta asrlar Xosniki shahri bilan teng qadriyatga ega bo‘lgan, sirli va tarixiy ahamiyatga boy yodgorlik sifatida saqlanib qolgan. O‘quvchilar ko‘rgan suratlar va yodgorliklar esa shunchaki tuproq uyumlari emas, balki tarixiy xazinalar koni ekanligini anglashlariga yordam beradi.

Bekobod hududi nafaqat tabiat va transport chorrahasi bilan mashhur, balki tarixiy jihatdan ham boy. Dalvarzintepa va boshqa qadimiy tepaliklar o‘tgan asrlarda karvonlar dam olgan, mol almashgan markaz bo‘lgan. Arxeologik topilmalar III–XV asrlarga oid yodgorliklarni ko‘rsatadi. Shu tariqa, hududimiz nafaqat yashash uchun qulay, balki tarixiy sirlar va qadimiy xazinalar bilan boy ekanligini eslatadi.

Qosim YOQUBOV,
Bekobod tumani tarixini yozish bo‘yicha ishchi guruh a’zosi

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGI:

TARIXIY MEROSGA YUKSAK EHTIROM



Buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi Amir Temur tavalludining 690 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda. Ushbu sana nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat va ehtirom ruhini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, Sohibqiron siymosi o‘zida jasorat, donishmandlik va bunyodkorlik timsolini mujassam etgan.

Amir Temur XIV asrda Movarounnahr hududida kuchli va markazlashgan davlat barpo etib, qisqa vaqt ichida uni jahon miqyosidagi qudratli saltanatga aylantirdi. Uning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi tajribasi o‘z davridayoq katta e’tibor qozongan. Sohibqiron har bir yurishida qat’iy intizom, puxta reja va strategik tafakkurga tayanib ish tutgan. Aynan shu jihatlar uning buyuk sarkarda sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirishiga sabab bo‘ldi.

Sohibqiron davrida ilm-fan, madaniyat va me’morchilik yuksak darajada rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand shahri uning tashabbusi bilan dunyoning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda bunyod etilgan ulkan me’moriy obidalar, madrasalar va bog‘lar o‘zining nafisligi va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Temuriylar davri me’morchiligi keyingi asrlar uchun ham ibrat maktabi bo‘lib xizmat qildi.

Amir Temurning davlat boshqaruvidagi qarashlari ham alohida e’tiborga loyiq. U adolatni bosh mezon sifatida belgilab, “Kuch — adolatdadir” degan g‘oyani ilgari surdi. Bu tamoyil jamiyatda tartib-intizomni ta’minlash, fuqarolar o‘rtasida tenglik va barqarorlikni qaror toptirishda muhim rol o‘ynadi. Uning mashhur asari — Temur tuzuklari davlat boshqaruvi, harbiy intizom va axloqiy me’yorlar haqidagi muhim manba sifatida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Amir Temur siymosiga bo‘lgan e’tibor yanada ortdi. Uning nomi bilan bog‘liq tarixiy obidalar tiklandi, haykallar o‘rnatildi, ilmiy tadqiqotlar keng yo‘lga qo‘yildi. Xususan, Amir Temur muzeyi faoliyati buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazishda muhim o‘rin tutmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda har yili o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali Sohibqiron merosi keng targ‘ib etilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida Amir Temur merosi yoshlar uchun bebaho ma’naviy maktab vazifasini o‘taydi. Uning jasorati, qat’iyati, yurt ravnaqi yo‘lida fidoyiligi har bir yosh avlod vakili uchun ibratdir. Ayniqsa, vatanparvarlik, mas’uliyat va fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantirishda Sohibqiron hayoti va faoliyati muhim o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Amir Temur shaxsini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kun taraqqiyoti uchun ham dolzarbdir. Uning davlatni boshqarish tajribasi, strategik fikrlashi va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun ham muhim saboqlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur siymosi — millatimiz faxri, uning boy merosi esa bebaho ma’naviy xazinadir. Uni chuqur o‘rganish, asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Buyuk ajdodimiz tavalludining 690 yilligini munosib nishonlash orqali biz nafaqat tarixga hurmat bajo keltiramiz, balki kelajak sari dadil qadam tashlayotgan avlodni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalaymiz.

Umida NURMUHAMMEDOVA,
Bekobod tumani 1-son politexnikumi o‘qituvchisi

Tahlil

MA’NAVIY JASORAT – KELAJAKKA YO‘L



Qadim-qadimdan inson ongi rivojlanib borgani sari hayot tarzi ham yangi bosqichlarga ko‘tarilib kelgan. Insonlarning yurishi, kiyinishi, harakati, o‘zaro muloqoti va voqelikni anglab, tushuntira olishi bilan birga, hayotga bo‘lgan intilishlari ham yuksalib borgan.

Ana shu jarayonlar natijasida insoniyat asta-sekin ma’naviy zaiflikdan yiroqlasha boshladi. Ma’naviy zaiflik esa jamiyat, davlat yoki xalqning ma’naviy masalalarda uyushqoqlikni yo‘qotishi, ma’naviyatga yetarli e’tibor bermasligi va tarbiya sohasida beparvolikka yo‘l qo‘yishi oqibatida yuzaga keladi.

Shuningdek, ma’naviy zaiflik milliy g‘oyaning yetarli darajada shakllanmagani, ilmiy asoslangan va izchil olib boriladigan ma’naviy tarbiya tizimining yo‘qligi yoki amaliyotda to‘laqonli tatbiq etilmagani natijasida ham paydo bo‘ladi. Moddiy va ma’naviy zaiflik o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini kuchaytiradi.

Ko‘p hollarda ma’naviy zaiflik jamiyatda beqarorlik va parokandalikka olib kelib, hatto davlat inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa millat birdamligiga putur yetkazib, taraqqiyotni ortga suradi.

Masalan, tariximizda yuz bergan Chingizxon bosqini, Rossiya imperiyasi istilosi hamda Bolsheviklar bosqini davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib, kurashga safarbar eta olmagani yurtimizning qaramlikka tushib qolishiga sabab bo‘lgan.

Bundan tashqari, o‘lkamizning uch xonlikka bo‘linib ketishi va yaxlit davlatchilik an’analarining zaiflashuvi xalqimizni moddiy hamda ma’naviy parokandalikka olib kelgan.

Shunga qaramay, o‘sha murakkab davrlarda ham ma’rifatparvar jadidlar — Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi fidoyi insonlar ma’naviyatni yuksaltirish, xalqni uyg‘otish yo‘lida maktab va madrasalar ochishga intildilar. Ammo siyosiy va harbiy bosimlar, ichki kelishmovchiliklar tufayli jamiyatdagi ma’naviy zaiflikni tezda bartaraf etish imkoniyati cheklangan edi. Sobiq totalitar tuzum davrida esa milliy qadriyatlar chetga surilib, kommunistik mafkura ustuvor etib qo‘yildi. Bu esa milliy ma’naviyat va tafakkurning zaiflashishiga olib keldi.

XX asrning 80-yillari oxirida boshlangan o‘zgarishlar natijasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab esa mamlakatimizda ma’naviyatni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bugungi kunda ham yuksak ma’naviyatni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash orqali ma’naviy zaiflikka barham berish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bir necha asrlar davomida yuksak tafakkur va aql-zakovat timsoli bo‘lib kelgan Suqrot va Aflotun, shuningdek, buyuk ajdodlarimiz — Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ siymolarning avlodi ekanimiz qalbimizda yuksak iftixor uyg‘otadi.

Demak, biz ana shunday buyuk ajdodlarga munosib bo‘lish uchun milliy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz, yoshlarni ilm-fan, texnologiya, sport va hunarmandchilik ruhida tarbiyalashimiz zarur. Yurtimiz ravnaqi, Yangi O‘zbekiston kelajagi yo‘lida birlashib harakat qilish esa har birimizning muqaddas burchimizdir. Zero, ma’naviy jasoratga ega inson doimo o‘z kelajagi sari qat’iyat bilan intilib yashaydi.

Nigora MAMADISOHOVA,
Bekobod tuman axborot-kutubxona markazi axborot-biblografiya xizmati mutaxassisi

Tafakkur

MAQSADSIZ YASHASH MUMKINMI?



Bugungi jamiyatda eng ko‘p ishlatiladigan, ammo eng kam tushuniladigan tushunchalardan biri — maqsaddir. Har bir suhbatda, intervyuda yoki oddiy tanishuvda ham “Maqsading nima?” degan savol tez-tez uchraydi. Ammo ko‘pincha unga beriladigan javoblar chuqur o‘ylangan bo‘lmaydi, shunchaki odat tusiga kirgan iboralardan iborat bo‘ladi. Go‘yoki maqsad — shunchaki aytish uchun kerakli jumla. Aslida esa maqsad — inson hayotining markazida turadigan, qarorlari, tanlovlari va harakatlarini boshqaradigan ichki kuchdir. Maqsad bo‘lmagan joyda yo‘nalish yo‘q, yo‘nalish bo‘lmagan joyda esa taraqqiyot bo‘lishi qiyin.

Ko‘pchilik maqsadni faqat kelajak bilan bog‘laydi: yaxshi ish, yuqori lavozim, moliyaviy barqarorlik. Albatta, bular muhim. Ammo maqsad faqat natija emas. U insonning bugungi kundagi pozitsiyasi, qadriyati va mas’uliyatidir. Chunki inson nimani maqsad qilgan bo‘lsa, hayotini ham o‘sha mezon asosida quradi. Muammo shundaki, bugun ko‘plab odamlar o‘z maqsadlarini emas, boshqalarning istaklarida yashayapti. Jamiyat, ijtimoiy tarmoqlar va atrof-muhit yaratgan “ideal hayot” tasviri ko‘pchilikni o‘ziga xoslikdan uzoqlashtiradi. Natijada inson o‘ziga tegishli bo‘lmagan yo‘lda yuguradi, lekin ichki qoniqish topolmaydi.

Maqsad insonni intizomli qiladi, vaqtni behuda sarflashdan va mayda chalg‘ituvchi omillardan himoya qiladi. Maqsadi bor odam har doim to‘g‘ri yo‘lda yuradi, deb aytish noto‘g‘ri bo‘ladi. U ham xato qiladi, adashadi, to‘xtab qoladi. Ammo maqsad unga qayta turib, yana oldinga yurish kuchini beradi.

Shuni ham tan olish kerakki, maqsad bir umr o‘zgarmas tushuncha emas. Inson ulg‘aygani sari, tajribasi oshgani sayin maqsadlari ham o‘zgaradi. Bu zaiflik belgisi emas, aksincha, ongli rivojlanish belgisi. Muhimi — har bir bosqichda inson o‘ziga halol bo‘lishidir. Bugungi tezkor hayotda ko‘pchilik natijaga oshiqadi: muvaffaqiyat, boylik, tan olinishi. Ammo haqiqiy maqsad sabrni talab qiladi. U insonni nafaqat marraga, balki shaxs sifatida shakllanishga olib boradi. Maqsad faqat “ega bo‘lish” emas, balki “kim bo‘lish” savoliga javob beradi.

Maqsadsiz yashash — bo‘sh yashash degani emas. Lekin maqsadsiz hayotda yo‘qotishlar ko‘proq bo‘ladi: vaqt yo‘qoladi, imkoniyatlar boy beriladi, ichki qoniqish kamayadi. Shu bois maqsad inson uchun yuk emas, balki tayanch bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, maqsad — bu insonning o‘z hayotiga bergan ma’nosidir. U balandparvoz so‘zlarda emas, kundalik harakatlarda namoyon bo‘ladi. Agar inson nima uchun yashayotganini anglasa, hatto eng oddiy hayot ham qadri baland hayotga aylanadi.

Gulhayo ABDUQAHHOROVA,
University of Business and Science
Namangan filiali
Filologiya (o‘zbek tili) yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Ta’lim va metodika

ADABIYOT TA’LIMIDA “TURFA ZAKOVAT”

Adabiyot darslarida badiiy asarni chuqurroq anglash uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuvlardan biri amerikalik olim Howard Gardner tomonidan ishlab chiqilgan “turfa zakovatlar” nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, insonning fikrlashi va bilimni o‘zlashtirish jarayoni yagona intellekt bilan cheklanmaydi. Aksincha, inson turli xil zakovat turlariga ega bo‘lib, har bir kishi bilimni o‘ziga xos usul orqali qabul qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Mazkur nazariyani adabiyot ta’limida qo‘llash orqali mumtoz adabiyot namunalari, xususan, Muhammadrizo Ogahiy ijodini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ogahiy g‘azallari mazmunan boy, badiiy jihatdan mukammal bo‘lib, ular turli yondashuvlar asosida talqin etilishi mumkin. Gardner nazariyasiga tayangan holda g‘azallarni tahlil qilish o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va badiiy matnni ko‘p qirrali anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf adabiyot darsliklarida Ogahiy hayoti va ijodi alohida o‘rin egallaydi. Dars jarayonida shoirning hayoti, ijodiy merosi hamda lirik asarlari o‘rganiladi. Shuningdek, ayrim g‘azallari ustida badiiy tahlil ishlari olib boriladi. Ushbu jarayonda turfa zakovatlar nazariyasidan foydalanish o‘quvchilarning adabiy asarni turli nuqtai nazardan anglashiga yordam beradi.



Lingvistik zakovatga ega o‘quvchilar asosan til, nutq va matn bilan ishlash jarayonida o‘z qobiliyatlarini namoyon etadilar. Bunday o‘quvchilar uchun Ogahiy g‘azallari asosida ijodiy yozma ishlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Masalan, g‘azal mazmuni asosida insho yozish, hikoya yaratish yoki g‘azaldagi muhim so‘z va iboralarni aniqlab, ularning badiiy vazifasini tushuntirish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu usul o‘quvchilarning til boyligini oshiradi va badiiy matnni chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

Mantiqiy-matematik zakovat matn ichidagi bog‘lanishlarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi. Bunday qobiliyatga ega o‘quvchilar g‘azalning ichki mantiqini ochish, undagi muammoli vaziyatlarni izohlash yoki asardagi makon va zamon tasvirlarini tahlil qilish orqali bilimlarini rivojlantiradilar. Shuningdek, g‘azal mazmuni asosida tahliliy xulosalar chiqarish ham ularning tafakkurini rivojlantiradi.

Jismoniy-harakatga asoslangan zakovat egalari bilimni faol harakatlar orqali o‘zlashtirishga moyil bo‘ladilar. Shu bois g‘azal mazmunini sahna ko‘rinishlari orqali ifodalash, qahramonning ruhiy kechinmalarini harakatlar yordamida tasvirlash kabi mashg‘ulotlar ular uchun samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etib, asar mazmunini jonli tarzda anglash imkonini yaratadi.

Musiqiy zakovatga ega o‘quvchilar ohang, ritm va tovush orqali badiiy asarni his etadilar. Shu sababli g‘azal ruhiyatiga mos kuy yoki ohang tanlash, she’r mazmuniga mos musiqa yaratish kabi topshiriqlar ularda estetik didni shakllantiradi. G‘azalning hissiy mazmunini musiqiy ifoda orqali anglash esa o‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Vizual-fazoviy zakovat egalari uchun tasviriy vositalar orqali o‘rganish samaraliroq. Bunday o‘quvchilar g‘azal mazmunini rasmlar va illyustratsiyalar bilan ifodalash orqali asarni chuqurroq idrok etadilar. Masalan, g‘azalda tasvirlangan tabiat manzarasi yoki qahramonning holatini ranglar yordamida ifodalash orqali o‘quvchi badiiy obrazni yanada aniqroq tasavvur qiladi.

O‘zaro muloqotga asoslangan zakovat turida o‘quvchilar guruh bilan ishlash jarayonida faol bo‘ladilar. Ular g‘azal mazmuni yuzasidan bahs-munozaralar tashkil etish, guruh loyihalari yaratish yoki sinfdoshlar fikrini umumlashtirish orqali bilimlarini boyitadilar. Bunday faoliyat o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Ichki muloqotga asoslangan zakovat esa insonning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini tahlil qilish qobiliyatiga bog‘liq. Bunday o‘quvchilar g‘azal asosida reja tuzish, maqola yozish yoki asarning tarixiy va ijtimoiy sharoitlarini o‘rganish orqali badiiy matnni mustaqil tahlil qilishga intiladilar. Bu jarayon ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Tabiiy-ilmiy zakovatga ega o‘quvchilar atrof-muhitni kuzatish orqali bilim olishga moyil bo‘ladilar. G‘azalda tasvirlangan tabiat manzaralarini tahlil qilish, qahramonning ruhiy holati bilan muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash kabi topshiriqlar ular uchun samarali hisoblanadi. Tabiat tasvirlarini g‘azal g‘oyasi bilan bog‘lash esa asarning badiiy mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Umuman olganda, turfa zakovatlar nazariyasidan foydalanish adabiyot ta’limida yangi pedagogik imkoniyatlarni ochadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy asarni ko‘p qirrali talqin qilish hamda dars jarayonini yanada qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar nafaqat Ogahiy g‘azallarining badiiy qiymatini anglaydilar, balki ularni zamonaviy tafakkur asosida tahlil qilish ko‘nikmasiga ham ega bo‘ladilar.

Shahnozaxon QAMBAROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
Sevinch RAHIMOVA,
TDSHU Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ijod chashmasi

XUSH KELDING BAHOR!

Samoda bulutlar suzar kemadek,
Qaldirg‘och qanotin yoyar har yonga.
Bahor kelganidan beradi darak
Atrof burkanadi lola-rayhonga.

Daraxt shoxlarida sayraydi qushlar,
Bahor navosini yetkazar go‘yo.
Lolaqizg‘aldoqlar yuzin ko‘rsatar
Iforin taratar bog‘-adir aro.

Anhorda sharqirab suvlar o‘ynoqlar,
Maysalar bag‘rida yeladi shamol.
O‘rik shoxlarida oq guldastalar
Demak yana keldi men kutgan bahor.

Bulutlar ortidan jilmayar quyosh
Ozod diyorimga nurlarin sochar.
Daraxt shoxlarida jajji yaproqlar
Go‘yoki uyqudan ko‘zlarin ochar.

Kelinchak singari boshini egib
Quyoshda tovlanar gullagan nihol.
Qir-u adirlarga husningni berib
Beg‘ubor o‘lkamga xush kelding, bahor.



Shabnamxon FAYZIMURODOVA,
Olmaliq shahar 1-son texnikumi 2-bosqich talabasi

ONA

Onajon bu dunyoda
Yo‘qdir sizday farishta.
Kasal bo‘lsam yonimda,
Tayyorsiz har bir ishga.

Dadam bilan siz birga
Kiringiz yuz yoshlarga.
Do‘st bo‘lib bardosh-sabrga,
Ibrat bo‘ling yoshlarga.

Dunyo turguncha turing,
Kasal bo‘lmang hech qachon.
Duogo‘yimsiz mening
Mehribonim onajon!



Diyoraxon TEMIRBAYEVA,
Bekobod tumani 31-umumta’lim maktabi 2-“A” sinf o‘quvchisi

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497